



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

10/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/10 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири; Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети; Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети; Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Norbekov Ahmadjon Norbekovich

XX-ASRNING BIRINCHI YARMIDA O'ZBEKISTONNING SIYOSIY -IJTIMOIY VA IQTISODIY HOLATI 11-18

Eliboyev Ozodjon Po'lat o'g'li

BAQTRIYANING KUSHONIYLAR DAVRI SHAHARSOZLIGI VA ME'MORCHILIGI 19-23

Нуритдинова Нодира Сирожсона

XX-ACP БОШЛАРИДА ТУРКИСТОН ЎЛКАСИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ (СЕНАТОР К.К. ПАЛЕН ТАФТИШ МАТЕРИАЛЛАРИ АСОСИДА) 24-28

Чориев Шоҳруҳ Холтура ўғли

ЎРТА ОСИЁ ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА САРОЙ АРХИТЕКТУРАСИ ИЖТИМОИЙ СТРАТИФИКАЦИЯНИ ЎРГАНИШ МАНБАСИ СИФАТИДА 29-38

Жумаева Шоира Бердиярова

МАРКАЗИЙ ОСИЁ МИНТАҚАСИДА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МУҚАДДАС ҚАДАМЖО ВА ЗИЁРАТГОҲЛАРНИНГ ЎРНИ 39-43

Jo'ravayev Muxriddin Xasanovich

MOVAROUNNAHRLIK MUHADDISLARNING ILMIY SAFARLARI VA SAFAR YO'LLARI GEOGRAFIYASI 44-51

Муҳимова Рисолат Рустамжон қизи

ЗИЁРАТ МАРОСИМЛАРИДА ТАБИАТ КУЛЬТИ БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТЛАР 52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Абдуллаев Алтинбек Янгибаевич

ДОННИ ҚАЙТА ИШЛАШ КОРХОНАЛАРИДА ТЎЛОВ ҚОБИЛИЯТИ БОШҚАРУВ ҲИСОБИНИНГ ИЛМИЙ – МЕТОДОЛОГИК ЁНДОШУВИ 57-69

Baxriddinova Yulduz Baxriddinovna

MINTAQALARDA FARMATSEVTIKA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURIYATI 70-75

Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich

QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA AGROBIOKIMYO XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING OBYEKТИV ZARURATI 76-86

Ибадуллаев Дилшад Ибрагимович

ИНВЕСТИЦИЯ САЛОҲИЯТИНИ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИНИ ЭКОНОМЕТРИК БАҲОЛАШ АСОСЛАРИ 87-92

Исламутдинова Дина Файзрахмановна

АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 93-102

Qobiljon Isaev

O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA (JST) A'ZO BO'LISHINI IQTISODIY BAHOLASH 103-110

09.00.00 – FALSAFA FANLARI*Xaitov Elmurod Bekmurodovich*

O'ZBEKİSTONDA "AHOLI HAYOT SİFATI"GA ASOSIY YONDOSHUVLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLİL) 111-116

Rasulov Zoҳiddin Usarovich

СПОРТ ЭСТЕТИКАСИ: РИТМ, ҲАРАКАТ ВА МАДАНИЯТНИНГ УЙФУНЛИГИ 117-122

Tavmuradov Жамишид Элмурадович

АБДУЛҚОДИР БЕДИЛНИНГ ҲАЁТ ЙЎЛИ: ФАЛСАФА ВА АДАБИЙ МЕРОС 123-128

Davronov Otabek Ulug'bek o'g'li

YUSUF QORABOG'İY SHAXSIYATI VA FALSAFIY-ILMIY MEROΣI 129-132

Muxtorova To'tixon Solijonovna

FALSAFA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: METODLAR
VA AMALIYOTLAR 133-137

Akramov G'iyosiddin Najmiddinovich

MARGINALLASHUV TUSHUNCHASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI 138-142

Ahmedova Dilrabo

DINIY BAG'RIKENGLIKNING YOSHLAR IJTIMOIY, MA'NAVIY QIYOFASI SHAKLLANISHIDAGI
IJTIMOIY POTENSIALI 143-150

11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI*Abdunabiyev Sunnat Botirovich*

IBN BATTUTANING «SAYOHATNOMA» ASARIDA TARIXIY SHAXSLAR NOMINING TARJIMADA
BERILISHI 151-159

Seytnazarova Injayim

ADABIYOTSHUNOSLIK SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH TAHLILI 160-168

Tukhtakhodjaeva Zulfiya

PHRASEOLOGY AS A SUBSYSTEM OF THE ENGLISH VOCABULARY 169-174

Abdusalamov Doniyor Togayali oglı

REFLECTION OF THE CONCEPT OF «POLITENESS» IN THE PHRASEOLOGICAL AND
PAREMIOLOGICAL RESERVOIRS OF THE COMPARED LANGUAGES 175-179

Axmedov Anvar Botirovich

TILNING NOMINATSIYA TIZIMIDA O'ZLASHMA SO'ZLAR 180-184

Aminov Farrukh Komiljon Ugli

THE EVOLUTION OF MEDIA DISCOURSE: FROM TRADITIONAL FORMS TO MULTIMODAL
REPRESENTATIONS IN DIGITAL SPACES 185-193

Sharipov Bobur Salimovich

RETSİPROKLİ SEMANTIK DERIVATSIYA 194-201

Abduganiyeva Zebuniso Abduhafizovna

ILMIY DISKURSNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 202-205

Samatov Farxod Muminovich

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA "TV" SEMANTIK MAYDONI LEKSIK BIRIKLARINING SO'Z YASALISH XUSUSIYATLARI (ABBREVIATURALAR MISOLIDA) 206-210

Kendjayeva Zemfira

METAFORIK POLISEMIYANING LINGVISTIK YUMORI..... 211-216

Abdullayeva Nilufar Ramazonovna, Uzoqova Durdona Baxtiyor qizi

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA «HID», « IS» KONSEPTINING SEMANTIK TAHLILI 217-221

Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi

ALISHER NAVOIYNING “NASOYIM UL-MUHABBAT” TAZKIRASI VA SULAMIYNING “TABAQOT US-SUFIYA” ASARLARI O'RTASIDAGI MUSHTARAKLIKALAR 222-226

Шарапова Лола Станиславовна

ИЛЛЮЗИЯ И РЕАЛЬНОСТЬ В КОНТЕКСТЕ МАГИЧЕСКОГО РЕАЛИЗМА..... 227-232

Ҳакимова Мастура Файзиллаевна

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК МАҶОЛЛАРИНИНГ МИЛЛИЙ ДУНЁ ТАСВИРИНИ АКС ЭТИШДАГИ АҲАМИЯТИ ВА ЛЕКСИК МАЬНОНИНГ РИВОЖЛАНИШИ (КЕНГАЙИШИ) 233-239

Mo'soyeva Hayitgul O'rroqovna

“HEART” – “YURAK” SO'ZLI METAFORALARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI KOGNITIV TAHLILI 240-245

Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TEZ AYTISHLARNING STRUKTURAVIY TAHLILI 246-250

Багаутдинова Ильмира Салаватовна

ВЛИЯНИЕ РОДНОГО ЯЗЫКА НА ПРОИЗНОШЕНИЕ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ 251-255

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Nuraliyev Oyatillo Abduvaliyevich

EFFECTIVE PRACTICES FOR DRAWING YOUNG TALENT TO UZBEKISTAN'S PUBLIC CIVIL SERVICE 256-268

Алиев Асилбек Кадирович

ВОПРОСЫ ОТГРАНИЧЕНИЯ МАССОВЫХ БЕСПОРЯДКОВ И ГРУППОВОГО ХУЛИГАНСТВА 269-275

Hong Weixing

INTERNATIONAL LAW AS THE FOUNDATION FOR THE DEVELOPMENT OF TRADE AND ECONOMIC RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA 276-284

Султанова Сабоҳат Алишеровна

ПЕРСПЕКТИВЫ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ ОЦЕНКИ РЕГУЛЯТОРНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН 285-290

Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi

O'ZBEKİSTONNING AXBOROT TEXNOLOGİYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLİY JINOYATLARGA QARSHI KURASH MASALALARI 291-298

Абдусамиева Дилярабо Абдувахоб кизи

ПРЕВЕНТИВНАЯ ФУНКЦИЯ ПОСТПЕНИЕНЦИАРНОЙ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ 299-304

Khalikov Khayot

THE ROLE OF MODEL UNITED NATIONS IN SHAPING GLOBAL LEADERS AND LAWYERS: A CASE STUDY ON UZBEKISTAN'S YOUTH 305-311

Даулетова Динара Даулетовна

ПРИЧИНЫ И УСЛОВИЯ, СПОСОБСТВУЮЩИЕ ХИЩЕНИЮ ЧУЖОГО ИМУЩЕСТВА.. 312-317

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Tolipov Bahtiyёр Hamitovich

БЎЛАЖАК ИҚТИСОДЧИЛАРДА АНАЛИТИК ТАФАККУРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК ВОСИТАЛАРИ 318-324

Sobirova Gulibarno Zainitdin қизи

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ
РУССКОГО ЯЗЫКА 325-335

Xolmatova Ziroatxon Anvarovna

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TASHXISLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA
INNOVATSION-METODOLOGIK YONDASHUVLAR 336-339

Abduxoliqov Sardor Safarovich

YOSH DZYUDOCHILARNI JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI
O'YINLARNING O'RNI 340-344

Usmonova Mohizoda Avazjon qizi

GLOBOL TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING MULOQOT MADANIYATINI INTEGRATIV
YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TIZIMI 345-348

Xodjiyeva Zumrad

MEZONLARGA ASOSLANGAN BAHOLANISHNING CHEKLANGAN DOIRASI 349-352

Turdiyev Ismoil Allayorovich

OLIY TA'LIM HAYOTIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI
HAQIDA 353-358

Ibadullaev G'ayrat Akmuradovich

BO'LAJAK FIZIKA-ASTRONOMIYA O'QITUVCHILARINING KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODLARI 359-364

Ishonkulov Sherali Sharifovich

TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANISHIDA VOSITASI SIFATIDA RAQAMLI
DASTURLARDAN FOYDALANISH 365-372

Raxmatov Rafik G'ayratovich

IMKONIYATI ChEKLANGAN O'QUVCHILAR RIVOJLANISHIDA TURMUSH TARZINI
SOG'LOMLASHTIRISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK
IMKONIYATLARI 373-378

Xalmuratova Shaxnoza Bekmurzaevna

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING RISKOLOGIK MADANIYATINI
SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI 379-383

Meliboyeva Nodira Qaxramanjanovna

MIRSODIQ TOJIYEV MEROSI (CHANG UCHUN YARATGAN ASARLARI MISOLIDA) 384-387

Qodirov Mirjalol Tolmasovich

TA'LIMDA GIPERMATNLI AXBOROT MODELLARINI QURISHNING ZAMONAVIY
TEXNOLOGIYALARI VA ASPEKTLARI 388-392

Karimova Aziza

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI SCAMPER TEXNIKASI ORQALI BOLALARNING KREATIV
TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHGA O'RGATISH METODIKASI 393-399

*Nishonov Nodir Alimjanovich*BO`LAJAK O`QITUVCHILARDA FUTUROLOGIK TAHLIL QILISH KO`NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISHNING MUHIM ASPEKTLARI 400-404*Xidirova Durdona Muxtorovna*SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA O`QUVCHI QIZLARNI IJTIMOIY MADANIY
MUNOSABATLARGA TAYYORLASH MEXANIZMLARI 405-408

Received: 10 December 2024

Accepted: 15 December 2024

Published: 25 December 2024

Article / Original Paper

THE SCIENTIFIC JOURNEYS OF THE MUHADDITHS OF MAVARRANAHR AND THE GEOGRAPHY OF THEIR TRAVEL ROUTES

Jurayev Mukhriddin Khasanovich

Denov institute of entrepreneurship and pedagogy

Email: muxriddin241992@gmail.com

Abstract. This article analyzes the meanings of the word "rihla" in both its lexicographical and hadith-related contexts. In the dictionary, the term "rihla" refers to "seeing, traveling, and riding something." In the context of hadith studies, however, it is used in the phrase "ar-rihla fi talabul-hadis," which means traveling for the purpose of studying hadith, learning about narrators, and receiving narrations from famous hadith scholars. A person who undertakes this journey is called a "rohil," and those who travel extensively are referred to as "rahhol" or "javvol." According to Fuat Sezgin, rihla refers to scholarly travel undertaken with the aim of compiling hadith, meeting important hadith scholars, and acquiring information about hadith. Orientalist Ignaz Goldziher, on the other hand, emphasizes that the rihla in the first three centuries was an activity focused on gathering oral hadiths. This article discusses the role of rihla in the history and development of hadith studies, as well as the geographical aspects of scientific journeys of the hadith scholars of Maveraunnahr during the Samanid and Qarakhanid periods. It also explores the social, cultural, political, and economic factors that contributed to the development of hadith studies in this region.

Keywords: Hadith, travel, madrasa, Samarkand, city, geography, road, border, region, sea, river, caravan, camel.

MOVAROUNNAHRLIK MUHADDISLARNING ILMUY SAFARLARI VA SAFAR YO'LLARI GEOGRAFIYASI

Jo'ravayev Muxriddin Xasanovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Bu maqolada, "rihla" so'zining lug'at va hadis atamasi sifatidagi ma'nolari tahlil qilinadi. Lug'atda, "rihla" so'zi "ko'rish, sayohat qilish va biror narsaning ortiga minish" degan ma'nolarni anglatadi. Hadis ilmining o'r ganilishi doirasida esa "ar-rihla fi talabul-hadis" deb atalib, hadisni o'r ganish, roviyni bilish va mashhur muhaddislardan rivoyat oli sh uchun safarga chiqish maqsadini bildiradi. Bu safarga chiqqan kishilarga "rohil" deyilsa, ko'p sayohat qilganlarga esa "rahhol" yoki "javvol" nomi berilgan. Fuat Sezginning fikriga ko'ra, rihla hadislarni jamlash, muhim muhaddislarni bilan uchrashish va hadis haqida ma'lumot olish maqsadida amalga oshirilgan ilmiy sayohatni ifodalaydi. Sharqshunos Ignaz Goldziher esa rihlaning dastlabki uch asrdagi og'zaki hadislarni yig'ish faoliyati sifatida ahamiyatini ta'kidlaydi. Maqolada rihlaning hadis ilmining tarixi va rivojlanishidagi o'rni, shuningdek, Somoniylar va Qoraxoniylar davrida Movarounnahrlik muhaddislarning ilmiy sayohatlari geografiyasi hamda bu hududda hadis ilmini rivojlanishiga sabab bo'lgan ijtimoiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy omillar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Hadis, sayohat, madrasa, Samarqand, shahar, geografiya, yo'l, chegara, hudud, dengiz, daryo, karvon, tuya

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI10Y2024N06>

Kirish. Islomning ilk davrlarida Makka va Madina shaharlaridan musulmonlarning ijtimoiy, madaniy va ilmiy markazlari sifatida foydalangan. Fath jarayonlari davom etar ekan, musulmonlar aholisining joylashishi bilan Kufa, Basra, Bag'dod, Qohira, Damashq kabi yangi Islom ilm markazlari paydo bo'ldi. Geografik jihatdan Iroq va Eronning sharqidan joylashgan Movarounnahr va Turkiston bu mamlakatlarga nisbatan keyinchalik Islom bilan tanishdi.

Hijriy I asrning oxirlarida nihoyat, fath harakatlarida muvaffaqiyatli natijalarga erishilgan, Movarounnahrga arablarning ba'zi qabilalari joylashtirildi. Hududda II-VIII-asrda boshlangan ilmiy faoliyatlar Somoniylar va Qoroxoniylar davrida pishib yetdi. IV-X, V-XI va VI-XII-asrlarda hadis ilmi nuqtai nazaridan hududning asosiy ilmiy markazlari sifatida Buxoro, Samarqand, Termiz, Niso va Shosh shaharlaring ajralib turishi kuzatiladi.

IV-X, V-XI va VI-XII-asrlar oraliq'ida Somoniylar va Qoroxoniylar davlatining islomiy ilm markazlari va bu markazlar orasidagi aloqalarning aniqlanishi, umuman Islom ilmlari tarixida va hadis tarixidagi bo'shliqni to'ldirishga yordam beradi. Ammo bu markazlarning aniqlanishi, ilm yo'llarining tabiatni, siyosiy hokimiyatning faoliyati hamda turli markazlarning ko'tarilishi va pasayishi o'rtasidagi aloqalarni o'rganish uchun umumiy qabul qilingan bir metod mavjud emas. Biz, ushbu tadqiqotning ushbu bosqichida "tarix", "tabaqot", "rijol" va "ansob" turidagi asarlardan aniqlagan muhaddislar va hadis rivoyati bilan shug'ullangan olimlarning oilaviy yoki qabilaviy holati, shuningdek, kasb va mazhabi haqida ma'lumot bera oladigan yozuvlar va undagi nisbalar orqali Qoraxoniylar davri islomiy ilm markazlarining va rihla yo'nalishlarining aniqlanishi mumkinligini ko'rsatishni maqsad qilmoqdamiz. Ilmiy adabiyotda nisbalar bir qabila, oila, rahbar sifatida tanilgan shaxs yoki qavmga; qishloq, shaharcha, shahar, mintaqa, davlat kabi joylarga; din, mazhab, tariqat kabi e'tiqod va diniy amaliyotga aloqador tuzilmalarga; bir san'at, kasb yoki ilm sohasiga va har qanday kitob, sinf yoki jamoaga mansublikni ifodalovchi nomlardir. Klassik manbalarda uchraydigan "Sulaymiy", "Qahtoniy" kabi qabilalar, "Bujayriy", "Mustag'firiy" kabi oilalar, "Hanafiy", "Shofeiy" kabi rahbar sifatida tanilgan shaxslar/olimlar, "Turkiy", "Forsiy" kabi millat/qavmlar, "Shoshiy", "Samarqandiy", "Bolosog'uniy" kabi shaharlar yoki "Xorazmiy", "Turkistoniy" kabi mintaqalar, "Nasroniy", "Majusiy" kabi dinlar, "Moturidiy", "Qarmatiy", "Sunniy" kabi mazhablar, "Qodiriy", "Naqshbandiy" kabi tariqatlar, "Bazzoz", "Sarrof" kabi kasblar, "Nahviy" kabi ilm sohalari va "Ansoriy", "Badriy" kabi sinf yoki jamoaga oid nisbalar bilan tez-tez uchrashish mumkin.

Bu nisbatlar har bir shaxsning maxsus holatidan xabar beruvchi ma'lumotlar kabi ko'rinsa-da, nisbalarga beriladigan ba'zi savollar orqali ijtimoiy tarixni o'rganish imkonini beradi. Shu ma'noda so'nggi paytlarda nisbalar asosida olib borilgan ba'zi tadqiqotlar mavjud bo'lib, davr bilan bog'liq turli mavzular nisba ma'lumotlari yordamida yoritishga harakat qilingan. Masalan, nisba ma'lumotlaridan foydalanib, Islom jamiyatining IV-XI-asrgacha bo'lgan iqtisodiy tuzilmasi mohiyati va bu jarayonda mavjud bo'lgan muhaddis va faqihlarning ilmiy hayoti bilan birga kasblari o'rganilgan va bu davrda Islom jamiyatining iqtisodiy tuzilmasi va qaysi mintaqada qanday kasblar kengroq tarqalganini o'rganish imkoniyatini taqdim etadi.

Payg'ambar davrida Islom ilmlarining tarqalgan markazlari Makka va Madina edi. Rihlaning dastlabki faoliyatları ham Rasululloh davrida boshlangan edi. Ya'ni, Hazrat Muhammadning payg'ambar bo'lishi va uni kuzatgan jarayonda ba'zi odamlar uni tanish, Islom asoslарini va yangi dinnin amaliyotini o'rganish maqsadida yoniga kelardilar, zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'rganganlaridan so'ng, o'z qabilalariga qaytib, ularga o'rganganlarini aytib berar edilar. Sahobalar ham diniy masalalarda Hazrat Payg'ambariga murojaat qilib,

bilmaganlarini o'rganishardi. Ma'lumot yetkazishda xotira asosli bo'lgan hijriy I asrga nisbatan hijriy II asrda asta-sekin yozma shaklga o'tgan va yozuv ilm halqalari markazlariga joylashgan, boshqa tomondan esa xotiraga ham ahamiyat berish davom etgan. Fathlar bilan davom etgan jarayonda turli hududlarga joylashgan olimlar o'sha yerda tashkil etgan ilm halqalari va tarbiyalagan talabalarining natijasida o'sha hududlarning poydevoriga aylanishgan va shu sababli yaqin hamda uzoq joylardan ilm talab qiluvchilarning tashrif buyuradigan joylariga aylanishgan. Klassik manbalarda Islom dunyosida yetishib chiqqan va o'ziga xos sohalarda ajralib turadigan olimlarning biografiyalarida bir olimning qabila, davlat, kasb va mazhabini ko'rsatuvchi nisbalarning mayjudligi bizga har bir davrning ijtimoiy-madaniy, ilm markazlari, olimlar o'rtasidagi munosabatlар kabi ko'plab masalalarning yoritilishiga imkon beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Mavzumiz doirasiga kiruvchi IV-X, V-XI va VI-XII-asrlarda Somoniylar so'ngra Qoraxoniylar davlati hukmronligi ostidagi hududlarda yetishgan, boshqa mamlakatlardan shu yerga joylashgan yoki hududga ilmiy safar (rihla) qilgan muhaddislar va hadis talabiga ko'p rihla qilgan, ko'plab hadis rivoyati bilan mashhur bo'lgan hamda hadis bilan bog'liq asarlar yozgan olimlarning biografiyalari "tarix", "tabaqot" va "mu'jamu'-shuyuh" kabi klassik manbalar taranib, aniqlangan, mavjud nisba ma'lumotlari va biografiyada joylashgan yashash joylari yordamida Somoniylar va Qoraxoniylar mamlakatining ilm markazlari aniqlashga harakat qilingan. Hududdan boshqa ilm markazlariga amalga oshirilgan rihlalarni aniqlashda esa olimlarning nisbalari emas, balki tarjimada zikr etilgan hudud yoki shaharlar asosan asos qilib olingan. Manbaalardan foydalanishda Nasafiyining *al-Qand*, Sam'oniyning *al-Ansob* va *al-Muntahab* (*Mu'jamus-shuyuh*) kabi hudud bilan bog'liq birinchi darajali manbalarga, shuningdek, boshqa manbalarga ham murojaat qilingan.

IX-XII asrda yetishgan muhaddislarni aniqlash maqsadida Najmaddin Nasafiyining *al-Qand*, Sam'oniyning *al-Ansob*, *al-Muntahab*, *at-Tahbir*, Qurashiyining *al-Javohiru'l-mudiyya*, Ibn Abdulhodiyning *Tabaqotu ulamo'i'l-hadis*, Zahabiyining *Tazkira*, Ibn Hajarning *al-Mu'jamu'l-mufahras*, Suyutiyining *Tabaqotu'l-Huffoz*, Sharifiyning *al-Muntahab min Kitabi's-siyoq li-Tarixi Nisobur* kabi asarlarning barchasi va Zahabiy *Siyarining* hijriy IV, V va VI-asrlarni qamrab olgan jiddlari tanlab olingan. Mazkur asarlar, IX-XII asrdagi olimlarning hududiy holatini ko'rsatuvchi nisbalar nuqtai nazaridan o'rganilganda, ushbu davrdagi ilmiy-madaniy jarayondagi o'zgarishlarni kuzatishga imkon beradi. Tadqiqot olib borish jarayonida ilmiy-uslubiy adabiyotlar, tadqiqotlar, manbalarni o'rganish va tahlil qilish, ilg'or amaliy tajribani tahlil qilish va umumlashtirish, analiz va sintez, induktsiya va deduktsiya, tizimli mantiqiy yondashuv, tarixiy va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Muhokama. Hadis o'rganish uchun amalga oshirilgan sayohatlarning birinchi ko'rinishi Payg'ambar (s.a.v) davrida boshlangan bo'lib, islomni keng yoyilishi bilan bu jarayon bilan keng tarqalgan. Sahobalardan Abu Abdulloh Jobir ibn Abdulloh Ansoriy r.a (vafoti: 78/697) bir tuyani sotib olib, Abdulloh ibn Unays r.a dan mazlum huquqi bor kishining jannatga kira olmasligi haqida hadisni so'rab, Shomga bir oylik yo'l safarini qilgani ma'lum. Allohning Rasuli ilm o'rganishga da'vat qilishi va sahobalarining bu maqsadda amalga oshirgan sayohatlari tobeinlar avlodni ham ta'sirlangan, avloddan-avlodga o'tib davom etgan bu amaliyat vaqt o'tishi bilan arab yozuvidagi taraqqiyotlar, kitobdan rivoyat qilish uchun ijazat berilishi va kitobga bo'lgan ishonchning ortishi kabi holatlar safarlarning kamayishiga olib kelgan.

Rihla (Ilmiy safar) an'analarining eng faol davri II-IV/VIII-X-asrlar orasida bo'lgan. Bu yerda, safar yo'llari aniqlanayotganida, ularning bog'liq bo'lgan ustozlarining ismlaridan emas,

balki har bir olimning tarjimalarida zikr etilgan joylashuv markazlaridan kelib chiqib natijaga erishishga harakat qilingan. Chunki ta'kidlangan tarjimalarning aksariyatida safar qilingan shaharlarning yoki hududlarning nomlari zikr qilinadi. Shunday qilib, bu ma'lumotlar mavzuning asosiy jihatlari bilan yoritilishiga yordam beradi. Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, Movarounnahrlik bir olimning rihla paytida boradigan markazlari Marv, Nishopur, Bag'dod kabi shaharlardan aniq ko'rsatilmagan bo'lsa ham, Hurosun, Iroq, Jibal kabi hududlar sifatida ko'rsatilgan bo'lsa ham, bu ham umumiylar ma'noda safar yo'llarini aniqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, bu hududlarning madaniy, tijoriy va ilmiy markazlar bo'lishi sababli, olimlarning bu markazlarda va odam ko'p joylashgan shaharlarda yashashlari zarur bo'lgan.

Safar yo'llari jihatidan IV-X-asrda 98 hadis olimi borligi ma'lum va ularning eng ko'p safar qilgan hududi Iroqdir (16). Iroqdagi shaharlardan Bag'dod (29), Basra (4), Kufa (3), Mavsul (2) ajralib turadi. Bu asrda eng ko'p safar qilingan boshqa hudud esa Hurosondir (14). Ushbu asrda Hurosoning eng katta, eng obro'li va ko'p soliq yig'iladigan joylari orasida Nishopur, Marv, Balh va G'azna bor edi. Tus, Juzjon, Niso kabi shaharlari esa ikkinchi o'rinda turadi. Hurosonda ko'p safar qilingan shaharlarga kelsak, ular Nishopur (26), Marv (8), Jurjon (4), Sarahs (3), Balh (2), Niso (2), G'azna (1) va Hirot (1) shaharlari hisoblanadi [1-326b]. Boshqa ajralib turadigan hududlar orasida Shom (Suriya) (14), Damashq (5), Antakiya (2), Hijoz (11), Makka (8), Misr (13) mavjud bo'lib, Ray (9) ham ushbu asrda muhim ilmiy markazlardan biri sifatida ko'rindi. Jibal (3), Jazira (2), Yaman (2), Fors (2), Andalus (1), Ahvoz (2) va Isfahon (2) kabi hududlarga kam sayohatlar amalga oshirilgan [1-337]. Ko'rib turganimizdek, ushbu davridagi olimlar ko'p ilmiy safarlar qilgan shaharlari orasida Bag'dod, Nishopur, Marv, Damashq, Ray, Makka, Fustot va Iskandariya (Misr) bor. Ular orasida Damashq va Misr shaharlari bundan mustasno bo'lib, qolganlari Ipak yo'li va hajga boradigan yo'lda joylashgan muhim shaharlar hisoblanadi. Qoraxoniylar davlatidan g'arbiy Islom mamlakatlariga yo'l olgan bir olimning yetib borishi kerak bo'lgan birinchi markaz Jayhun daryosi bo'yida joylashgan Amul shahri bo'lgan, undan keyin Sarahs → Nishopur → Damag'on → Ray → Sava → Hamadon → Kirmanshoh → Bag'dod yo'llari bo'yicha safar qilinardi. Sarahs, Xorazm bilan Movarounnahr mahsulotlarining o'tgan shahri sifatida tanilgan, Ray bilan Hamadan orasida joylashgan Sava shahri haqida Ibn Xavkal quyidagi fikrlarni aytadi: "Sava, Iroq yo'li bo'yida joylashgan, tuyalari ko'p, havosi yaxshi shahar. Bu yerdan hajga boradigan ko'pchilik tuyalarga minishadi. Yaxshi tuyalar yetishtirishganidek, yaxshi tuyachidirlar. Movarounnahr kabi hududlardan kelganlar tuyalar bilan Makkaga olib borishadi." [1-278] Olimlar, yo'l xavfsizligi nuqtai nazaridan ko'proq ishlatalidigan yo'llarni tanlagan va savdo karvonlari bilan safarga chiqqan deb taxmin qilish mumkin. Chunki, ayni asrda Shoshning muhim olimlaridan biri bo'lgan Qaffol Shoshiy hadis hofizi Abu Muhammad Muzaniy (vafoti: 356/967) dan hadis tinglash uchun kelganida, u karvon bilan yo'lga chiqishini aytgan [2-227/8b].

Sharqdan Bag'dodgacha bo'lgan yo'lga kelsak, Bag'doddan Kufa → Vosit → Basraga borib, so'ngra Hijoz va Yaman tomon yo'l olishardi. Samarqandlik Abu Ahmad Muhammad ibn Abdullah Samarqandiy (vafoti: ?) hajdan qaytishda Vositga borib, u yerda tinglagen hadislarni Bag'dodga kelgach rivoyat qilgani haqida ma'lumot berilgan, bu yo'lning ishlatalishini ko'rsatadi [3-447b]. Ray → Qum → Kashan → Isfahon → Tustar → Ahvaz → Basra yo'li ham karvonlar tomonidan tez-tez ishlataligan yo'llardan biridir. Bu yo'lni, ehtimol, ilmiy markaz bo'lgan Isfahonga borishni xohlagan ilm talabalarining tanlagani bo'lishi mumkin. Shuningdek,

Basradan kemada Yamanga borish mumkin edi. Bag'dod → Kufa → Hijoz haj yo'li ham ishlatilgan yo'llardan edi. Movarounnahrli bir ilm talibi Misrga safar qilishni istaganida Bag'dodga kelib, oradan Raqqa → Hums → Damashq → Falastinining markazi Ramla → Misr yo'lini yoki O'rta dengiz sohilida joylashgan Antakiya yoki Surdan dengiz yo'li bilan Misrga o'tishi mumkin edi. Bag'dod, Samarra, Tikrit va Mosul shaharlari orqali o'tadigan Dajla va Raqqa, Kufa va Basra kabi muhim shaharlari bir-birini bog'lovchi Frot daryolari ilm talabalarining sayohatlari davomida ishlatilgan yo'llar ekanligi tushuniladi. Masalan, Nasaflik Abu'l-Lays Nasr ibn Munzir Qubindaviy (vafoti: ?) Huroson, Iroq, Hijoz, Shom va Misrgacha ilmiy sayohat qilib, muhaddis Qutayba ibn Sayid (vafoti: 240/855) va hadis hafizi Hishom ibn Ammor Dimashqiy (vafoti: 245/859) kabi olimlardan foydalangan va Dajla daryosida cho'kib o'lganligi haqida xabar berilgan.

Movarounnahrdan Hurosanning Hirot, G'azna kabi muhim shaharlarga borish uchun Buxoro → Nasaf → Termiz, Samarqanddan esa Samarqand → Kesh → Nasaf → Termiz → Buxoro yo'li ishlatilgan. 4./10. asrda Iroq mintaqasiga ko'plab ilm talabalarining kelganligi sababi, bu yerning haj yo'li ustida joylashganligi va shu asrda Iroqlik muhaddislarning ko'pligi hamda Islom dunyosida 800 dan ortiq asarlarning yozilishida Iroqlik hadis olimlarining yetakchilik qilganidir[4-157b].

V-XI-asrda mavjud bo'lgan 63 olimning safar yo'llarida Xurosan (7) mintaqasining oldinga chiqganligi kuzatilmoqda. Bu mintaqaning shaharlari esa Nishopur (12), Marv (7), Jurjon (7), Buxoro (3), Hirot (3), Sarahs (3), Niso (2), G'azna (1) bo'lgan.

Iroq (6), Bag'dod (11), Basra (4), Kufa (1), Shom (5), Damashq (3), Antakiya (1), Sur (1), Misr (7), Hijoz (4), Makka (2) kabi ilm markazlari bilan birga Hamadon (3), Ray (2), Jibal (2), Ahvaz (2), Jazira (2), Xuziston (2) kabi joylar ham ko'rsatilgan. Shuningdek, bu davrda Isfahon (9) ham e'tiborni tortmoqda. Ko'rinish turibdiki, bu asrda Huroson shaharlari sayohatlarida o'ziga xos ahamiyat kasb etgan bo'lib, Jurjon va Isfahon kabi shaharlarga oldingi asrga qaraganda ko'proq tashrif buyurilgan.

VI-XII-asrda mavjud bo'lgan 26 olimning safar yo'llari oldingi asrlar bilan bir xil bo'lib qolgan. Huroson (3), Nishopur (4), Balh (4), Hirot (3), Marv (3), Tus (2), Jurjon (2), Niso (2), Sarahs (1), Buxanj (1), Iroq (4), Bag'dod (4), Mavsum (3), Basra (1), Kufa (1), Shom (2), Damashq (1), Halab (1), Hijoz (3), Makka (1), Isfahon (2), Ray (1) kabi joylar keltirilgan. Saljuqiylar davrida (431-590/1040-1194 yillarda) yashagan muhaddislarni o'rganadigan bir bo'lsak, sunnatning geografik markazlari, ya'ni ilm va madaniyat markazlari sifatida Marv, Nishopur, Isfahon, Hamadon, Ray, Qazvin, Balh, Hirot, Sheroz, Bag'dod, Vosit, Basra, Kufa, Makka, Madina, Dinavar, Damashq, Quddus, Sur, Buxoro va Samarqand kabi shaharlar tilga olinadi[5-165/6b]. Bu ma'lumotlar yuqoridagi ma'lumotlar bilan mos keladi. So'nggi ikki asrdagi olimlarning mazkur ilm markazlariga borish uchun tanlagan yo'llari IV-X-asrdagi yo'llar bilan bir xil bo'lgan deb tahmin qilish mumkin. V-XI-asrning ikkinchi yarmida, madrasalar va bir asr o'tgach dorul-hadislar ochilib, ilm dunyosiga taqdim etilganidan so'ng, hadis va boshqa ilm sohalari bo'yicha safar qilishlar kamaydi.

Natijalar. Tadqiqotimizning maqsadi, Somoniylar va Qoraxoniylar davrida ilmiy markazlar bo'lgan Bag'dod, Sham, Madina, Kufa va Misrdan juda uzoqdagi Buxoro, Termiz, Nasaf va Samarqand shaharlарining ilm va madaniyat markaziga aylanishining sabablari, shuningdek, hadis ilmining bu hududda rivojlanishiga ta'sir etgan omillarni aniqlash va Movarounnahrlik muhaddislarning hadis talabidagi ilmiy safarlarini geografiyasini

o'rganishdir. Movarounnahrda ayniqsa Buxoro va Samarqand shaharlariда islomiy ilm-fanlar, boshqa ilm tarmoqlari va madaniy hayotning rivojlanishiga ta'sir qilgan omillarni to'rt asosiy bo'limga ajratib ko'rdik. Movarounnahr viloyatining ilmiy va madaniy hayotiga ta'sir qilgan birinchi omil ijtimoiy tuzilmasi edi. Movarounnahrning zabit etilishi va islomlashish jarayoni Buxoro va Samarqand shaharlariiga hadis ilmining kirib borishiga sabab bo'lgan. Bu jarayonda Movarounnahrga yetib borgan sahabalar, asosan fath etilishida faol bo'lgan. Sahobalardan Qusam ibn Abbos, Abu Buzdah Aslamiy va Asvd ibn Hazim ibn Safvonlar hududning fath etilishida katta hissa qo'shgan. Movarounnahrga hadis ilmining kirib borishi, hududning fath etilishidan keyin Buxoro va Samarqandga joylashgan tabein va keyingi avlod olimlarining bu hududda hadis ta'limi va o'qituvchilagini boshlashlari bilan amalga oshganini aytish mumkin. Bu olimlar orasida Rufa ibn Mihron (vafoti 90-93/708-711), Abdulmalik ibn Umayr Qurashiy Kufiy (vafoti 130/747) va Dahhok ibn Muzohim (vafoti 105/723) kabi nomlar mavjud. Movarounnahrda tabein avlodi faoliyatining eng muhim belgilaridan biri Buxoroning Nur qishlog'ida tabein avlodidan ko'plab olimlarning dafn etilgan qabristonining mavjudligidir. Buxoro va Samarqand shaharlaring fath etilishidan oldin va keyin bu yerlarga musulmon arab oilalarining joylashtirilishi, hududning islomlashish jarayoniga ta'sir etganidek, hadis ilmining rivojlanishiga ham hissa qo'shgan. H.51/M.671 yilda Huroson volisi Rabi ibn Ziyod Horis, Hurosonga va Jayhun (Amudaryo) daryosining qarshi tomoniga 50 mingdan ortiq Kufalik va Basralik oilalarni joylashtirgan. Bu ko'chish harakati Movarounnahrning fath etilishiga tayyorgarlik bo'lgan. Qutayba ibn Muslim, Buxoro va Samarqand shaharlarni fath etganida, ko'plab musulmon arab oilalarini bu ikki shaharga joylashtirgan. Movarounnahrga hadis ilmining kirib borishi, tabein avlodining hududga joylashishi va bu ko'chish harakati bilan amalga oshgan deb hisoblanadi. Samarqandning mashhur muhaddisi Dorimiy (vafoti 255/869) esa, hududga joylashtirilgan arab oilalarining avlodidan bo'lishi mumkin.

Movarounnahrda arab bo'limgan musulmonlarga "mavoli" deyilgan. Umaviylar va Abbosiylar hukmdorlarining mavoli haqida turlicha qarashlari, mavoliga qarshi qabila asabiyati tushunchasi bilan ajratish siyosati va arablarning jamiyatdagi ustun o'rni hudud aholisining ilm sohasida o'zini rivojlantirishiga sabab bo'lgan. Shu tariqa, arab bo'limgan musulmonlar ilm dunyosida hukmronlik qilishgan. Bu holat Buxoro va Samarqand shaharlarda ham o'zini ko'rsatgan. Jamiyat hayotida o'zlariga ustun mavqe yaratish uchun ilm sohasida muvaffaqiyat qozonishni afzal ko'rgan mavoli kishilarning bu harakati hududning ilmiy va madaniy hayotining rivojlanishida muhim omil bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, bu mintaqaning shu davr ichidagi siyosiy tuzilmasi ilm, madaniyat va sivilizatsiyaning rivojlanishida muhim bir omil bo'lgan. Somoniylar hukmdorlarining Buxoro va Samarqand shaharlari ilm va olimlarga bergan e'tibori hamda ular taqdim etgan tinchlik va xavfsizlik muhiti ilm va madaniyatning rivojlanishiga zamin yaratgan. Umaviylar va Abbosiylar boshqaruvi davrida olimlarga bosim va qiyonoqlar o'tkazilgan bo'lsa-da, ayni davrda Movarounnahrda Somoniylar hukmdorlari olimlarga hurmat ko'rsatgan va ularni qo'llab-quvvatlashgan. Umaviylar davrida Mihna hodisalarida olimlar so'roq qilingan va o'lim bilan jazolanganlar. Keyinchalik, Qur'on maxluq masalasida ham Umaviy va Abbosiylar davrida ilm ahli bosimga uchragan. Abbosiylar davrida ayniqsa hadis olimlari Qur'onning xalq bo'lishi yoki bo'lmasligi masalasida so'roq qilingan, Ahmad ibn Hanbal kabi muhaddis olim Qur'on maxluq bo'lmasligini qabul qilmaganlar qiyonoqlarga solingan. Ba'zi olimlar esa o'ldirilgan, ularning boshlari Bag'dodda odamlar ko'rishi uchun namoyish etilgan. Buxoro va Samarqand

shaharlarida esa Somoniylar hukmdorlari olimlarga hurmat ko'rsatgan va ularga katta e'tibor berishgan. Olimlar Somoniylar hukmdorlarining huzuriga kelganda yerga o'pishmagan, aksincha, Somoniy hukmdorlari olimlarni ko'rganlarida turib, ularga hurmat ko'rsatishgan. Somoniylar hukmdorlari moddiy jihatdan ham ilm ahlini qo'llab-quvvatlashgan. Bag'doddan Samarqandga kelib, bu yerga joylashgan faqih va muhaddis Muhammad Nasr Marvaziy (vafoti 294/907) Amir Ismoil ibn Ahmad tomonidan har yili to'rt ming dirham pul bilan taqdirlangan. Olimlarning janoza namozlarini shaxsan Somoniy sultonlari o'qib, ularga bergan e'tibor va ahamiyatni ko'rsatishgan. Somoniylar saroylarida ilm majlislari bo'lган. Buxoro va Samarqand shaharlarida joylashgan bu ilmiy majlislarda har qanday fikr erkin muhokama qilinardi. Movarounnahrda, ayniqsa Buxoro va Samarqand shaharlarida tinchlik va xavfsizlik muhiti ta'minlanganligi, barcha ilm tarmoqlari bilan birga hadis ilmining rivojlanishiga ham hissa qo'shgan. Bu holat, shuningdek, davrning ilm markazlarida, ayniqsa Bag'dodda yashovchi hadis olimlarining Buxoro va Samarqand shaharlariga ko'chib, bu yerga joylashishlariga sabab bo'lган. Shu tariqa, Movarounnahr Bag'dodga teng bo'lган olimlar geografiyasiga aylangan. Hatib Bag'dodiyning "Tarixi Bag'dod" asarida Bag'doddan Buxoro va Samarqand shaharlariga ko'chib kelgan ko'plab olimlar va muhaddislar haqida so'z yuritilgan.

Uchinchidan, ilm va madaniyatning rivojlanishining sabablaridan biri ham iqtisodiy shart-sharoitlar hisoblanadi. Tarix davomida madaniyat va sivilizatsiyaning savdo yo'llari orqali tarqalishi tasodif emasdir. Buyuk ipak yo'li ustida joylashgan Buxoro va Samarqand shaharlarining ilmiy va fikriy jihatdan rivojlangan bo'lish sabablaridan biri, bu hududlardagi iqtisodiy faoliyatlarning yuqori darajaga yetganidir. Savdo yo'llarining yo'naliishlari bu shaharlarga qarab yo'nalganda, bu ikki shahar muhim savdo markazlariga aylangan. Somoniylar davrida davlatning va xalqning boyligi tufayli iqtisodiy va madaniy rivojlanish yuzaga kelgan. Buxoro va Samarqand shaharlari markazlari va qishloqlari bilan birga juda jonli savdo markazlari bo'lган. Uzoq hududlardan savdogarlar kelib, katta bozorlar va savdo joylari tashkil etilgan. Buxoro va Samarqandda savdogarlar uchun omborlar va savdo joylari mavjud bo'lган. Bu ikki shahar qishloq xo'jaligi, chorvachilik va qimmatbaho toshlar savdosidan tashkil topgan kuchli iqtisodiy tuzilishga ega bo'lган. Samarqandda arzon qog'oz ishlab chiqarilishi va uni ko'plab mamlakatlarga sotilishi ilmiy va madaniy hayotni jonlantirgan, shuningdek, boshqa Islom va Yevropa davlatlarining rivojlanishiga ham sabab bo'lган. Savdogarlar nafaqat savdo mahsulotlarini, balki ilmni, madaniyatlarni va sivilizatsiyalarni ham bu hududga olib kelganlar.

To'rtinchidan, Buxoro va Samarqand shaharlarida boshqa dinlar va madaniyatlarning o'zaro ta'siri, Movarounnahr geografiyasining madaniy xilma-xilligi va boyligi, hududning ilm va madaniyat hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, bu hududda olimlarning yetishishida va ilmiy hayotning rivojlanishida ham muhim rol o'ynagan. Miloddan avvalgi davrlarda Ahamoniylar, Makedoniyalik Iskandar, Yunon Baqtriya, Kushonlar, Eftaliylar, Turk xoqonligi va musulmon arablar hududda hukmronlik qilganlar. Hududda Islomdan oldingi davrda Buddizm, Zardushtiylik, Xristianlik, Moniylik va Shamanizm dinlari mavjud bo'lган. O'tgan dinlar va madaniyatlar hududdagi ta'lim va o'qitish muassasalarining shakllanishida ta'sir ko'rsatgan. O'tgan dinlarning ta'lim muassasalari, hududning islomlashish jarayoni bilan birga tark etilmagan, aksincha, rivojlantirilgan va davom ettirilgan. Bu holat Buxoro va Samarqand shaharlarida ilk madrasalarning tashkil topishiga hissa qo'shgan. Madrasalar bu hududda paydo bo'lishida, buddistlarning ta'lim muassasasi bo'lган viharalarning (Monastr) katta ta'siri bo'lganini aytish mumkin[6-83/84b].

Xulosa qilib aytish mumkinki, hadis tarixida olim va muhaddislarning rihla faoliyatları hadislarning keng yoyilishi va tadvin etilishiga muhim hissa qo'shgan. Rihla, ya'ni ilmiy safarlar, hadislarning to'planishi, rivoyatlarning tekshirilishi va ilmiy an'alarining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Ushbu safarlarda sahobalar, tobein, taba'a tobein va muhaddislarning tutgan o'rni alohida e'tiborga molikdir. Movarounnahr hududidagi muhaddislarning hadis talabidagi ilmiy safarları, o'z navbatida, hadis ilmining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ular bu safarlarda hadislarni yig'ib, saqlab qolish va keyinchalik tadvin qilish jarayonini samarali ravishda amalga oshirdilar. Shunday qilib, hadislarning yuksak ilm sifatida yuksalishi va avlodlarga yetkazilishi, aynan rihla faoliyatları orqali amalga oshdi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. İbn Xavqal, Abul-Qosim Muhammad (367/977), Suratul-Ard, thk. Kramer-Johannes Heind, Leiden 1938.
2. Sam'oni, Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhamad ibn Mansur (562/1166), Kitabul-Ansob, thk. Abdulloh Umar al-Barudi, Darul-jannan, I-V, Bayrut 1988.
3. Hatib Bag'dodiy Abu Bakr Ahmad ibn Ali (463/1070), Tarixi Bag'dod Madinati's- Salam, thk. Bashshar Avvad Ma'ruf, Daru'l-G'arbil-İslami, I-XVII, Bayrut 2001.
4. Sandıkçı, S. Kemal, İlk Üç Asırda İslam Coğrafyasında Hadis, D.İ.B. Yayınları, Ankara 1991.
5. Topaloğlu, Nuri, *Selçuklu Devri Muhaddisleri*, Ankara: Diyanet İşleri Başkanlığı, 1988.
6. Demirci, Mustafa, „Türk İslam Medeniyetinin İkinci Dalgası: Orta Asya“da Bilim ve Düşüncenin Dinamikleri, Uluslararası Türk Dünyasının İslamiyete Katkıları Sempozyumu, Isparta 2007

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

N^o S/10 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).